



HUDUDNING TABIIY-GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI AHOLI JOYLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA

Abduvaliyev Hayitboy Abdug'aniyevich

Farg'ona davlat universiteti geografiya kafedrasida katta o'qituvchisi, g.f.f.d., (PhD).

Abdulxamidov Abdusattorjon Abdumalik o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, geografiya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Maqolada aholining hududiy tashkil etilishiga ta'sir etuvchi tabiiy-geografik omillar guruhlangan. Ushbu guruhlanish orqali aholi joylanishining yetakchi tabiiy-geografik birliklari ko'rsatib o'tilgan. Tabiiy-geografik omillarning aholi joylanishiga ta'siriga qarab kuchli, o'rtacha, o'rtachadan kam va kam darajalarga ajratilgan. Shuningdek, maqolada aholining joylanishidagi uchta yetakchi tuzilish sxemalarini tushuntirishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: tarixiy geografik joylashuv, tabiiy-geografik omillar, ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz, istiqbolli rivojlanish, shaharlar, qishloqlar, demografik yuk, geomorfologik omil, gidrologik omil, iqlimiy omil, qulay tabiiy-geografik sharoit.

Kirish. Aholi geografiyasi bir-biri bilan chambarchas bog'langan ikki yirik tizimdan iborat hududiy tizimlarni ya'ni, aholi va aholi punktlarini o'rganadi. Birinchisi, aholining hududiy guruhlari bilan shug'ullanadi. Ushbu yondoshuvning maqsadiga qarab, qit'alar, davlatlar, mamlakatlar va ularning ayrim hududlari (shahar, qishloq, ovul, turar-joy) aholisi qiyosiy o'rganiladi. Ikkinchisi, aholining aholi punktlari bo'yicha taqsimlanishini, joylanishini tadqiq etishdir. Bu ikki tizim ham bir-biriga mutanosib bo'lib, doimo biri ikkinchisini to'ldiradi. Aholining geografik joylashuvi o'z navbatida hududning tabiiy geografik sharoitiga, tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligiga, hududning o'zlashtirilishiga bog'liqdir.

Aholining hudud bo'ylab taqsimlanishi aholi va aholi punktlarining joylashuvi bilan bog'liqdir. O'z navbatida aholi punktlari shakllanishi aholi taqsimlanishining hududiy shaklidir. Aholi o'sishi va joylanishining muhim masalalaridan biri aholi punktlari joylanishining yagona tizimini barpo etishdir. Bunda aholi punktlari ishlab chiqarish, transport aloqalari, umumiy infratuzilma tarmoqlari, ijtimoiy-madaniy va dam olish joylari uzviy o'zaro bog'liq holda birlashgan bo'ladi. Ikkinchidan, aholi punktlari joylanishida tayanch markazlarni tashkil etishdir. Bu tayanch nuqtalar shaharlar, katta va yirik shaharlar, shahar aglomeratsiyalari, megalopolislar bo'lishi mumkin. Ba'zan, kichik aholi punkti uchun rayon markazi yoki kichik shahar aholi punkti tayanch vazifasini o'taydi. Aynan mana shu ilmiy qarash mazmun-mohiyati jihatdan amalda uzoq vaqtdan beri o'z mavqeini saqlab kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'tkazilgan adabiyotlar taxlili va ilmiy xulosalar orqali aholini hududiy tashkil etishning dolzarb muammolari turli davlatlar, mintaqalar, kichik mintaqalar va hatto, aholi punktlari uchun ham bir-biridan farq





qilishi aniqlandi. Biroq aholini hududiy tashkil etishning umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib barcha mintaqalar uchun umumiy bo'lgan jihatlar ham mavjud. Ular qatoriga quyidagi 3 ta muammo kiradi.

Aholining hududiy tashkil etish bilan bog'liq birinchi muammo hozirgi zamonda dunyo aholisining tez sur'atlar bilan o'sishidir. Aholi nafaqat ekstremal hududlarda balki, aholisi o'ta zich hududlarda ham tez sur'atlarda o'smoqda. Ba'zi hollarda hatto aksincha holatlar ham mavjud bo'lib, aholisi zich hududlarda aholi jadal o'smoqda, kam aholiga ega bo'lgan hududlar aholisi yanada kamaymoqda. Shunday qilib, bir vaqtning o'zida ikkita o'zaro bir-biri bilan bog'liq muammo yuzaga keladi. Dunyoning ba'zi joylarida aholi zichligi haddan ziyod ko'payib bormoqda va boshqa qismlarida hali ma'lum bo'lgan resurslarni maqbul rivojlantirish uchun yetarli aholi mavjud emas (yangi resurslar odatda noqulay sharoitli, aholisi siyrak hududlarda joylashgan). Ahamiyatli jihati, ikki muammo ham bir mamlakatning ichida uchrashi va katta hududiy tashkil etish muammolarini yuzaga keltirishi mumkin. Mazkur muammo Farg'ona vodiysida ham uchraydi. Markaziy Farg'onaning cho'l mintaqasida (Bo'ston, Ulug'nor, Mingbuloq, Yozyovon tumanlarida) qo'riq yerlarni o'zlashtirilishi, sanoatni rivojlantirish uchun ishchi kuchi yetishmasligi kuzatilib, norasmiy mehnat bozorlari shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, Quva va Toshloq tumanlarining Quvasoy shahar hududiga yaqin qismida shunday norasmiy mehnat bozori yuzaga kelgan. Bu norasmiy mehnat bozorining vujudga kelishida o'ziga xos geografik qonuniyatni kuzatish mumkin. Quva tumanida aholi zichligi 584,3 kishini, Toshloq tumanida 837,5 kishini tashkil etgani holda, Quvasoy shahrida aholi zichligi atiga 353,0 kishini tashkil etadi. Bu esa Toshloq va Quva tumanlari mehnat resurslarining mazkur hududga oqimini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda [7, 8, 10].

Norasmiy mehnat bozorlari yuzaga kelishida demografik yuk ko'rsatkichi sifatida baholanadigan aholi zichligi yuqori bo'lishi asosiy o'rinni egallamoqda. Aholi o'ta zich joylashgan tumanlar bilan aholi siyrak joylashgan tumanlar chegarasida mehnat bozorlarini yuzaga kelganligi, mehnat migrantlari sonini ortganligini kuzatish mumkin. Aholining hududiy tashkil etilishi bilan bog'liq bo'lgan mazkur muammoning yechimini topish, mintaqaviy imkoniyatlarni qidirish Farg'ona vodiysi aholi joylavushining asosiy muammolaridan biridir [1, 3, 4, 5].

Muhokama va natijalar. Aholining hududiy tashkil etilishi bilan bog'liq muammoning ikkinchi turi ayrim hududlarda aholining bir joyga yig'ilishidagi katta farqlarning mavjudligi bo'lmoqda. Katta shaharlarda aholi soni doimiy ravishda ko'payib, uning zichligi 10 ming kishigacha yetayotgan bir paytda qo'shni hududlarda aholi soni keskin qisqarishi kuzatilmoqda. Bu holat aholining bir tekisda joylashish muammosini kuchaytiradi. Xususan mamlakatimizda aholi soni 100 mingdan ortiq 18 ta shaharlar mavjud bo'lib, ularning 3 tasi (Farg'ona, Qo'qon va Marg'ilon) Farg'ona viloyatiga to'g'ri keladi. 2023 yilda Quvasoy shahrining ham aholisi 100 ming kishidan ortgan shaharlar qatoriga qo'shiladi. Ushbu shaharlarda viloyat aholisining 1/4 qismi istiqomat qilmoqda (1-jadval).





Viloyatda keyingi yillarda aholi sonining shahar joylarda jadallik bilan o'sib borishi kuzatilmoqda. Bunday o'sish qishloq tumanlari aholisi o'sishidan tezroq kechayotganligini va bu esa viloyat shaharlarida (ayniqsa, katta shaharlarda) talabidan ortiqcha mehnat resurslarining yig'ilib borayotganligini ko'rsatadi.

Aholining hududiy tashkil etilishidagi dolzarb muammolarning uchinchi turi – istiqbolli rivojlanish nuqtai-nazardan oqilona bo'lmagan ko'chishlarning (emigratsiya) mavjudligidir. Allaqachon to'lib toshgan aholi maskanlariga aholining ko'chib borishi hozircha foydalidek ko'rinishi ammo, vaqtlar o'tib bu ko'chishlar katta ijtimoiy-iqtisodiy inqirozni yuzaga keltirishi kuzatiladi. Masalan, Meksikada aholining katta qismi Mexikoga ko'chmoqda. Biroq, shahar o'sib borayotgan bosimni hozirdanoq ko'tara olmay qoldi. Mamlakatimizdagi Muborak, Gazli, Sho'rtan kabi resurs shaharlarda ham aholining tez o'sib borayotganligi ham shunga o'xshashdir. Vaqti kelib, ushbu shaharlarning neft-gaz zahiralari tugaydi, shunda u yerdagi hududning tabiiy-demografik imkoniyatining pastligi o'zining salbiy ijtimoiy-iqtisodiy holatini yuzaga keltirishi mumkin. Farg'ona mintaqasidagi Chimyon, Sho'rsuv, Andijon, Janubiy Olamushuk va Polvontosh kabi resurs shaharchalarda ham shu holat kuzatilmoqda. Aholi soniga nisbatan tabiiy resurslarni (birinchi navbatda yer va suvni) yetishmasligi kuzatiladi. Vaholanki, bir paytlar ular ham huddi Muborak, Gazli, Sho'rtan kabi shaharchalari aholini o'ziga ohanrabodek tortgan edi [2].

1-jadval

Farg'ona viloyatida respublikaga bo'ysinuvchi shaharlar aholisining 2010-2022 yillardagi o'sishi

Shaharlar	Aholi soni (ming kishi)		O'sish (foizda)
	2010 yil	2022 yil	
Farg'ona sh.	234,7	299,2	127,5
Qo'qon sh.	221,4	259,2	117,1
Marg'ilon sh.	202,6	242,5	119,7
Quvasoy sh.	81,4	96,9	119,0


Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi muammolarning mintaqaviy jihatlarini bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab vaziyatni (jarayonni) yuzaga keltiradi. Shuning uchun bu muammoni, bir-birini to'ldirib boruvchi bosqichlardan iborat (1-rasm).

Aholini hududiy tashkil etilishiga ta'sir etuvchi tabiiy-geografik omillarni o'rganish, miqdor va sifat ko'rsatkichlarini baholash. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda asosiy e'tibor faqat tabiiy-geografik omillarga qaratiladi;

Aholini joylashuvini baholash, yangicha uslublarni qo'llash, tahlil qilish, diagnoz qo'yish, muammolar va muammoli holatni aniqlash;





1-rasm. Aholini joylashuviga ta'sir etuvchi omillarning geografik yo'nalishlari.

Olingan tahliliy ma'lumotlar asosida muammolarni bartaraf etish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Aholining bugungi hududiy joylanishi qonuniyatlarini, mavjud holatini aniqlash, tadqiq etish uchun turdosh fanlardan olingan materiallar bilan birga geografiya fanlari tizimidagi tabiiy geografiya (landshaftshunoslik, iqlimshunoslik, gidrologiya), iqtisodiy geografiya (qishloq xo'jaligi, sanoat, shaharlar geografiyasi, demografiya), ijtimoiy geografiya (xizmat ko'rsatish geografiyasi, rekreatsiya va turizm geografiyasi) fanlari tarkibiga kiruvchi bir qator yo'nalishlarda olingan nazariy materiallar, tahlillar va baholash natijalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.





Aholini joylashuvi bo'yicha tadqiqotlarda eng dastlabki aholining joylashuviga ta'sir etuvchi omil bu albatta tabiiy-geografik omil bo'ladi. Avvalo aholining joylanishiga ta'sir etuvchi eng dastlabki tabiiy-geografik omil bu geomorfologik omildir. O'z navbatida geomorfologik omillarga hududning mutloqiy balandligi, hudud relyefining qiyaligi va parchalanganligi (raschlenennost relyefa) asosiy birlik sifatida tanlandi. Sababi shundaki dunyo aholisi joylashuvidan shu jihat ma'lumki, aholi asosan dengiz sathiga nisbatan yaqin bo'lgan hamda yuzasi tekisroq bo'lgan hududlarda aholi maskanlari qurishni va unda yashashni istaganlar. Keyinchalik aholi sonining ortishi, yuqoridagi kabi hududlarning taqchillashuvi natijasida aholi joylanishida o'zgarishlar kuzatila boshlagan (1-rasm).

Bundan tashqari hududning iqlimiy (quyosh radiatsiyasining taqsimlanishi, qulay iqlim mintaqalarida joylashuv), tuproq, gidrologik (okean, dengiz, daryo va soylar bo'yida joylashuv) ko'rsatkichlari o'rganiladi [6, 8, 9, 12].

Tadqiqotning yakuniy bosqichida aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun chora-tadbirlar majmuasi ishlab chiqiladi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatimizda aholi joylanishi bilan bog'liq ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va landshaft tadqiqotlari olib borish zaruriyati tug'ilmoqda. Katta demografik salohiyatga ega bo'lgan Farg'ona viloyati aholisining joylanishida tabiiy-geografik omillarni rolini ochib berish ham amaliy ham nazariy ahamiyat kasb etadi [7, 10, 11, 13].

REFERENCES:

1. Boymirzayev K. Farg'ona vodiysi voha landshaftlaridan foydalanish va muhofaza qilish. – T.: Fan, 2007. – 130 b.
2. Tojiyeva Z.N. O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari// Geog.fan.dok. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.; 2017. –225b.
3. Soliyev E.A. Farg'ona vodiysi daryolari suvi oqimini iqlim o'zgarishi sharoitida baholash. Geogr. fan. nom. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref.-Namangan, 2008.-21 b.
4. Никанорова А.Д. Ландшафтно-геоэкологическое обоснование оптимизации водопользования в орашаемом земледелии Ферганской долины. Дисс.... канд. геог.наук. –М., 2015. – 169 с.
5. Кашин А.А. Исследование ландшафтной организации территории Удмуртии как фактора хозяйственного освоения и расселения населения. Дисс. ... канд. геог.наук. –Ижевск, 2015. – 184 с. (<https://www.dissercat.com>)
6. Abduvaliev, H. A. (2020). Some issues of population dynamics in the Fergana Valley. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(9), 135-140.





7. Абдувалиев, А. Ҳ., & Парпиева, Г. М. (2022). ФАРҒОНА ВОДИЙСИДА АҲОЛИНИНГ ЕР БИЛАН ТАЪМИНЛАНГАНЛИК ДАРАЖАСИ ВА УНИНГ АҲОЛИ ЗИЧЛИГИГА ТАЪСИРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 1174-1183.
8. Abduvaliyev, H. A., Vahobjonov, A. A. O., & Rahimberdiyeva, K. D. Q. (2022). ENCLAVE AND EXCLAVE REGIONS OF CENTRAL ASIA. *Scientific progress*, 3(1), 87-89.
9. Abduvaliyev, H. A. A., Hamdamova, F. A. Q., & Eraliyev, Z. Z. Q. (2021). LANDSHAFT OMILI ASOSIDA AHOLI HUDUDIY TAKRIBINI TAKOMILLASHTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 1219-1223.
10. Абдувалиев, А. Ҳ., & Абдулхамидов, А. А. Ў. (2021). ФАРҒОНА ВОДИЙСИДА АҲОЛИ ЖОЙЛАШУВИНИНГ ИЖТИМОЙИҚТИСОДИЙ ОМИЛЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 1127-1136.
11. Abduvaliyev, H. A., & Jarqinova, M. X. (2021). AHOLINING HUDUDIY TARKIBINI TABIIY-LANDSHAFT BIRLIKLARI BO 'YICHA TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 33-38.
12. Abduganievich, A. H. (2020). Application Of The Landscape Approach To The Study Of The Population Distribution Of The Fergana Valley. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(07), 291-297.
13. Абдувалиев, Х. А. (2020). ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИЗУЧЕНИЯ ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ НАСЕЛЕНИЯ. *Научный вестник Наманганского государственного университета*, 2, 255-261.
14. Абдурахмонов Д. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ГЕОЭКОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ //IJODKOR O'QITUVCHSI. – 2022. – Т. 2. – №. 21. – С. 58-63.
15. Абдурахмонов Д. ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИ РЕГИОНАЛ-ЛАНДШАФТ ТАДҚИҚОТЛАРИ //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 314-317.

